



ISTE'MOL BOZORI

(dastlabki ma'lumot)


2018 yil yanvar-aprel

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-aprel

oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,5 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, viloyat bo'yicha ulgurji savdo 2018 yilning yanvar-aprel oylarida 229,6 mlrd.so'mni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 95,8 foizni, ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi esa joriy yilning yanvar-aprel oylarida 40,9 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,4 foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (35,2 foiz), Karmana tumani (14,7 foiz), Qiziltepa tumani (12,6 foiz), Xatirchi tumani (12,1 foiz) va Zarafshon shahri (8,5 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shahar va tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,8 foizni tashkil etdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 92,3 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 249,6 mlrd.so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 17,0 foizni tashkil etdi.

